



BOBUR OBRAZI NEMIS YOZUVCHISI TALQINIDA

Olmos Xurramov,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ф.Вюртленинг “Андижон шаҳзодаси” саргузашт қиссасидаги қатор ўзига хос образлар “Бобурнома” воқеалари, Бобур образини холис ва ҳаққоний талқин этишига қаратилган. Умуман, исломий эътиқод, миллий руҳ, мардона табиат билан безаб тасвир этилган Бобур образининг асосига муаллиф ўзга миллат кишиси бўлишига қарамасдан илоҳий, Қуръоний кўрсатма ва тушунчаларни қўйгани маълум бўлганлиги ёритилган.*

Калим сўзлар: *саргузашт қисса, тарихий ва бадиий ҳақиқат, характер, бадиий талқин, композиция, услуб, бадиий маҳорат.*

Аннотация: *Ряд уникальных персонажей приключенческой повести Ф. Вюртле «Андижанский принц» направлен на беспристрастную и правдивую интерпретацию событий «Бабурномы», персонажа Бабур. В целом образ Бабур, который изображен с исламской верой, национальным духом и героическим характером, объясняется тем, что, несмотря на то, что автор – иностранец, известно, что он вложил божественные и коранические наставления и концепции.*

Ключевые слова: *приключенческий повесть, историческая и художественная правда, характер, художественная интерпретация, композиция, стиль, художественное мастерство.*

Annotation: *A number of unique characters in F. Wuerthle's adventure story “The Prince of Andijan” are aimed at an impartial and truthful interpretation of the events of “Baburnoma”, the character of Babur. The overall image of Babur, who is portrayed with Islamic faith, national spirit and heroic character, is due to the fact that despite the fact that the author is a foreigner, he is known to have infused divine and Qur'anic instructions and concepts.*

Keywords: *adventure story, historical and artistic truth, character, artistic interpretation, composition, style, artistic skill.*

Avstryalik nemis olimi va yozuvchisi Fris Vyurtlening nemis tilida yozilgan “Bobur - yo‘lbars” qissasining dunyoga kelganiga yarim asrdan oshgan. Asar 2011 yilda Yanglish Egamova tomonidan “Andijon shahzodasi” nomi bilan o‘zbek tiliga o‘girildi. Asar tarjimasiga so‘z boshi yozgan shoir S.Sayyid shunday ma‘lumotni keltiradi: “Fris Vyurtle bu asarini “Boburnoma”dan ta’sirlanib, yoshlar uchun yozgan. Kitob o‘tgan asrning 1947 yilida Avstraliyada bosilib chiqqan” (ta’kid bizniki. O.X.).¹ Haqiqatdan ham, Yevropa adabiyotida Uyg‘onish davridan boshlab yoshlarni Sharqning buyuk sarkardalari, allomalari ruhida tarbiyalash an’anasi

¹ Саййид С. Андижондан чиққан йўлбарс наъраси / Вюртле Ф. Андижон шаҳзодаси. Сангузашт-қисса. Олмон тилидан Янглиш Эгамова таржимаси. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – Б. 4.



mavjud. Chingizxon, Amir Temur, Ibn Rushd, Ibn Sino, Umar Hayyom haqidagi badiiy asarlar Yevropa ma'naviy-badiiy dunyosi uchun shu vazifani bajarib kelgan. "Andijon shahzodasi" qissasi ham aynan shu maqsadda yozilgan. So'zboshi muallifi buni to'g'ri anglagan va to'g'ri qayd etgan.

Qissaning kompozitsion tuzilishi o'ziga xos. U xuddi A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" yoki "Mehrobdan chayon" romanlaridagidek sarlavhalangan kichik boblardan tashkil topgan. Albatta, bu an'ana g'arb adabiyotida ham J.Bakkachcho, M. De Servantes, J.Svift, Ch.Dikens kabi ijodkorlar asarlarida uchraydi. Bunda asar kompozitsiyasini bob sarlavhalari muvofiqlashtirib turadi. Kichik sarlavha o'zida mazmunan shu kichik bob mundarijasini ifodalaydi. Qolaversa, o'quvchining voqeadan voqeaga, syujetdan syujetga oson o'tishini ta'min etadi. Bizningcha, asarning sarguzasht yo'lida yozilgani ham shunday kompozitsion qurilishni talab etgan. Sarguzashtlar markazida turgan qahramonning har qadamini ishtiyoq va sinchkovlik bilan kuzatayotgan o'quvchi uchun bunday sarlavhachalar juda muhim.

"Andijon shahzodasi" asari "Osmondagi Temir qoziq", "Karvonboshi", "Jazolash", "Umarshayx Mirzoning o'limi" kabi jami 19 ta kichik kompozitsion bo'lakdan tashkil topgan. Muhimi ular o'rtasida mustahkam badiiy izchillik bor. Bir sarlavha ostidagi voqea keyingisi bilan bog'lanib ketadi. Qissa sarlavhalari faqat shakliy xususiyat kasb etmaydi, balki har biri muayyan badiiy g'oyani ifodalab keladi. Asar yozuvchi tomonidan sarguzasht-qissa tarzida taqdim etilgan bo'lsa-da, o'zining ichki mazmuni va mantiqiga ko'ra tarixiy fakt – "Boburnoma" mantiqidan uzoqlashmaydi. Asar muallifi "Boburnoma" orqali Bobur shaxsiyati haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Voqealar, qahramonlarni xolis tasvirlashga urinadi. Bu jihat bizningcha, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. F.Vyurtle Bobur fikr-o'ylari, ehtiyoj va istaklari, qarorlari asosida uning Allohga bo'lgan qat'iy ishonchi, e'tiqodda turishini chuqur his etgan va buni obraz ruhiyatiga singdirib yuborgan.

2. Muallif ijodkorona savqitabiiysi bilan Bobur yashagan makon, davr ruhini teran his etgan. Bu joydagi harbiy jamiyatning yozilmagan axloq va faoliyat qoidalarini to'g'ri anglagan. Bobur va uning atrofida qilgan mohiyatan urush odami, jangavor muhit kishilari ekanliklarini ularning o'zaro muomalalari, fikr-xayollari, harakatlari, qiziqishlari, maqsad-maslaklari asosida obrazli ko'rsatishga erishgan. Bir so'z bilan ularning jangu jadal muhitiga daxldor odamlar ekanlarini asosli tasvirlay olgan. Bu jamiyat kishilarining podshohdan boshlab, vaziru vuzarogacha, olimdan shoirgacha, dehqondan sarrofgacha, tojirdan muallimgacha



harb kishilari ekanini, jang nog'orasi ularning qonini jo'shtirishini ko'rsatib bergan.

3. Qissadagi Bobur va uning muhitini shiddatli harakatlar jarayoni tashkil etadi. O'z-o'zidan bunday shiddatkorlik ular o'rtasidagi jonli muloqotda ham aks etadi. F.Vyurtle buni teran ilg'agan. Tarjimon ham harbiy jamiyatga xos jangavor muloqot ritmini to'g'ri bera olgan.

Qissa syujeti yosh Bobur va ustoz Mirzo Ulloh muloqoti bilan boshlanadi. Muloqot avvalida yozuvchi karvon yo'lida o'sgan anor daraxtini ramziy tasvirini beradi. Bu anor o'ta qadimiy bo'lib, uning uchun millat, madaniyat, til yoki tana rangining ahamiyati yo'q. Kimki qaqrangan cho'ldan suvsab, holsizlanib kelsa, o'zining soyasi va mevasi bilan siylaydi. Anor hayotining mazmuni shunda. Bizningcha, bu bilan F.Vyurtle Bobur avlodlariga, Sharq allomalariga xos javonmardlik, saxiylikka ishora qiladi. Bunga mos ravishda Bobur va ustoz muloqotda ham inson kamoloti, e'tiqod, ilm haqida so'z boradi. Shu muloqot jarayonida so'z ochilgan Temir qoziq yulduzi ham ramziy mohiyat kasb etadi. U asarning oxirgi nuqtasiga qadar Bobur orzu-maqсадlarining timsoli sifatida bosh qahramon qalbida yashaydi. Mudarrisning buyrug'iga amal qilmagani uchun Mirzo Ulloh uni savalatadi. Qizig'i shundaki, bunday jazo usuli na jazolanuvchi, na jazoni kuzatgan xalq tomonidan salbiy qabul qilinadi. Hamma adolat shohu gadoga barobar degan g'oyaga ishonadi, shu bilan yashaydi. Jazo amalga oshirilayotgan paytda hammani bitta narsa qiziqtiradi: yosh shahzoda jazolash paytida o'zini qanday tutadi? Irodasizlik qilib, ko'zda yosh bilan oh chekadimi yoki mislsiz og'riqni mardona kutib oladimi? Albatta, Bobur jazoni mardlarcha kutib oladi. Ko'zidan bir qatra yosh oqizmaydi. Oh-voh qilmaydi.

Bizningcha, muallif qissa boshiga bu epizodni shunchaki kiritmagan. Shu sahna orqali Yevropa o'quvchisida Boburga nisbatan ishonch va muhabbat uyg'otishni ko'zda tutgan. Qolaversa, kelajakda Bobur taqdirida bitilgan yozuqning naqadar og'ir bo'lishiga ishora qilgan. Shu epizoddan so'ng Bobur hayotida shiddatli voqealar boshlanib ketadi. Zum o'tmay Umarshayxning o'limi haqida xabar yetib keladi. O'spirin Boburning boshiga toj kiydiriladi. F.Vyurtle Aysi qal'asi, kaptarxona, unda ro'y bergan Umarshayx o'limini yaxshi tasvirlagan. "Kechagina podshohimiz hamishagidek kaptarlarni ko'rish uchun tag'in tepaga, Axsidagi eng baland minoraning sakkiz yuz to'qson uchta zinasi bo'ylab chiqdi. U yerda uzoq, ancha uzoq qolib ketdi...

Men aytganimdek, agar Axsining eng baland minorasi tepasidagi eng yuqori maydonchasidan turib tosh otilsa, uning suvga shaloplab tushganini eshitgunga



qadar Allohga uch bora shukrona aytib, shaytonni olti marta la'natlashga ulgurish mumkin. Ishonamizki, Umarshayx Mirzo ham qulagan paytda dahshat ichida yerga yetib borgunicha Allohga shukrona aytib, shaytonni la'natlashga o'zida kuch topa olgan".²

Tasvirning o'ziga xosligi shundaki, o'quvchi undan Axxi minorasining naqadar balandligini, mahobatini, Umarshayx Mirzoning jismoniy va ruhiy quvvatini, mardonaligini, e'tiqodini to'liq anglaydi. Voqelikda tasodifan pastga qulagan odam baqiradi, qo'rqadi, vahimaga tushadi. Atrofdagilarni yordamga chaqiradi. Muallif esa bu joy mahobati va fojaviy holatdan favqulodda xulosa chiqaradi. Umarshayx Mirzoning komil e'tiqodiga, eng qaltis vaziyatda ham Allohga suyanganiga ishonch bildiradi. Bu esa qissada epizodik qahramon vazifasini bajargan Umarshayx Mirzo ruhiyatini, u yashagan islom muhitini xolis tasavvur qilish imkonini beradi. "Boburnoma"da Umarshayxning o'limi tafsilotlari atroflicha berilmagan. Kaptarxonadagi favqulodiy hodisa qay tarzda ro'y bergani, fojining sabablari haqida "Boburnoma"da hech narsa deyilmaydi. Bularning hammasini Bobur bir ibora bilan "Kaptarxonadan qulab shunqor bo'ldi" tarzida ifodalaydi. "Boburnoma"ning ilk jumlasini ham "Tengri taaloning inoyati va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldum" xabari bilan boshlanadi. Ammo F.Vyurtle bungacha va bundan keyingi voqealarni tasvirlashda badiiy fantaziyaga suyanadi. Boburning yaqin gumashtalaridan biri Qosimbek obraziga ham o'ziga xos fantastik libos kiydiradi. Bunga S.Sayyid ham alohida e'tibor qaratgan: "Albatta, Fris Vyurtle muallif sifatida har qanday badiiy vosita va uslublardan, jumladan, badiiy to'qimadan ham foydalanishga yuz chandon haqli. Shu ma'noda yosh Bobur taxtga o'tirgan vaqtda o'ttiz yoshli xushqomat, navqiron bo'lgan Qosimbek ushbu asarda ko'zlari ojiz donishmand, maslahatgo'y mo'ysafid sifatida tasvirlanadi", deb yozadi u so'zboshida.³

Umarshayx Mirzoning o'limi va Qosimbek obraziga kiydirilgan badiiy to'qima libosi ham, bizningcha, tasodif emas, balki muallifning badiiy niyati bilan bog'liq. Muallif o'zining Umarshayx o'limiga doir taxminlarini izohlash uchun Qosimbek obrazini asarga aynin shu tarzda olib kirgan ko'rinadi. Qosimbekning sadoqati, Bobur bilan ota-bolalarcha yaqinligi, qaltis vaziyatlarda ko'rsatgan

² Шу китоб. – Б. 29.

³ Шу китоб. – Б. 8.



jasorati haqida esa muallif “Boburnoma”dan o‘qigan. Unga donishmand, karomatgo‘y libosini kiydirishi esa asar syujetining keyingi rivoji uchun zarur edi.

Qosimbek obrazi qissada ma‘lum ma‘noda izquvar-detektiv vazifasida keladi. Navoiy Ahmad Yugnakiy haqida aytganidek “Uning zohir ko‘zlari yopiq bo‘lsa ham, botin ko‘zlari nihoyatda yorug‘ edi”. Shuning orqasida Umarshayxning qattol g‘animlari fosh etiladi. Boburga qarshi tuzgan rejalari barbod qilinadi. Qosimbekning tadbirlari sabab Boburning ustozlari so‘zlab bergan rivoyat ta‘sirida amalga oshirmoqchi bo‘lgan o‘smirlarcha harakatlari muvaffaqiyatli tugaydi.

Asardagi ikkinchi bir g‘aroyib obraz Boburning daydi, o‘g‘ri do‘sti Xoji obrazidir. Bu obraz ham yozuvchi badiiy xayoloti mahsuli bo‘lib, uning ostida Yevropa ritsar romanlaridagi do‘st obrazi asos bo‘lgan ko‘rinadi. Ritsar romanlarida tasodif tufayli uchrab qolgan “do‘st” obrazlarining aksariyati nasl-nasabining tayini yo‘q, ko‘cha bolalaridan tashkil topgan. Mantiqan ular, yo‘qotadigan narsalari bo‘lmagani bois tavakkalga o‘chroq bo‘ladilar. Aynan shu sabab o‘zlarining homiylari yoki do‘stlariga sadoqatda hammadan o‘zib ketadilar. Xoji ham shunday obrazlardan biri. U Bobur bilan o‘ziga teng o‘rtoqdek muomala qiladi. O‘zining avvalgi odatlari, masalan, o‘g‘irlikdan qaytmaydi. Nima o‘ylasa shuni gapiradi, nima xohlasa, shuni qiladi. Uni aql-mantiq emas tasodif boshqaradi. Ayni xususiyatlari bilan Boburning atrofini o‘rab turgan arkoni davlatdan farq qiladi. Boburning muhabbatiga, oqsuyaklar nafratiga sazavor bo‘ladi. Ammo Asxi qo‘rg‘oniga qilingan hujumda Xoji tasodif tufayli Bobur g‘alabasiga sababchi bo‘ladi. Umarshayx Mirzoga xiyonat qilgan Asxi qal‘asi begini tutadi. Uni sandiqqa solib, Boburga sovg‘a sifatida peshkash qiladi. Boburning bu qanday sovg‘a? degan savoliga shunday javob qiladi:

- Kechiring,-javob berdi Xoji, ulug‘ a‘yonlardek ta‘zim qilarkan,-qachondan beri podshoh biror ko‘cha bolasidan qimmatbaho sovg‘a olibdi? Sizga keltirganimiz iflos, arziyasiz sovg‘a. Ammo uni iltifot bilan qabul qiling, do‘stingiz Xojining sizga bo‘lgan sadoqati belgisi.⁴

Asarda shuningdek, Mirzo Ulloh, Hasan karvon, Jallod, olti bahodir kabi qator obrazlar ham bor. Ammo ularning barchasi Bobur bilan bog‘liq muayyan epizodlardagina o‘zlarini to‘la namoyon etadilar. Ullohda tanballik va donolikning qoorishib ketishi, Hasan karvonda qo‘pollik va zukkolikning bir paytda voqe bo‘lishi, Jalodda befarosatlik va berahmlikning, olti bahodirda sadoqat va jasurlikning qo‘sha kelishi Bobur xarakteri va faoliyatini yorqin ochishga xizmat

⁴ Шу китоб. – Б. 136.



qilgan. Qissadagigi eng yorqin obraz o'z-o'zidan Bobur obrazidir. Bu obraz chuqur va shiddatli dinamik xarakterga ega. Biz uni dastlab bir ilm tolibi sifatida ko'rsak, so'ng orzulariga oshufta ulkan qalb egasi sifatida kashf etamiz. Ba'zan u o'yinqaroq, qaysar bola bo'lib ko'rinadi. Otasining o'limidan keyin tadbirkor, jasur, dono yetakchiga aylanadi. Bu jihatlar oq kigizga o'tqazib xon ko'tarish marosimida yaqqol namoyon bo'ladi. Shoh Bobur o'z qarorlari bilan atrofdagilarni lol qoldiradi. Muallif Boburga xos hukmdorlik fazilatini bo'rttirish uchun asarga quyun voqeasini kiritgan. Asxiga hujum oldidan qo'shin qattiq qum bo'roni ostida qoladi. Ularning ortidan kelayotgan oziq-ovqat va qurol karvoni orqada qolib ketadi. Qo'shin ikkilanib turgan bir paytda yosh Bobur quyundan hadik qilmay, karvonni izlab ketadi. Bedarak ketganini bilgan qo'shin ichida ishonchsizlik, sarosima boshlanadi. Hatto qochoqlik belgisi sifatida jangavor bayroqdagi qo'tos dumi o'rniga ayollarning urchug'ini osib qo'yishadi. Asxidagi sotqinlar ham bu to'g'rida turli afsonalar to'qiydilar. Ammo yosh Bobur jang uchun muhim karvonni qo'shinga shikastsiz yetkazib keladi. G'iybatu, ishonchsizliklar barham topadi...

Eng muhimi, Bobur Alloh oldida odil va rostgo'y bir banda, do'stga sodiq, yog'iyga shafqatsiz, olimlar qarshisida dono, g'anim qarshisida jasur jangchi sifatida namoyon bo'ladi. F.Vyurtele talqinidagi Bobur kamtarin, shuhratga o'ch emas. Asxi qal'asini zabt etishganda ham u "bu mening xizmatim emas, hammamizniki", deydi. O'z qo'shini bahodirlari tomonidan sharaflanganda esa shunday so'zlarni aytadi:

- Men Andijondagi shohlar tepaligida ota-bobolarimizdan qolgan oq kigizga o'tirganimga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Mening rutbamning belgisini o'n ikkita kuchli qo'l, jangchilarim ushlab turdi, shu qo'llardan oltitasi jangda halok bo'ldi. Ko'plab boshqa yigitlarimiz bilan birga, tag'in uchta qahramon ajal so'qmog'i orqali jannat bog'lariga ravona bo'lishdi. Ular u yerda chodirlarini tikishdi, mening otam, shoh Umarshayx Mirzo ham ularning yonida... Alloh mehribon, u ularga jannatda otlarni minib, quvnoq o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun qurollarini qaytarib bersa kerak.⁵

Bobur ko'pgina murakkab hodisalarga munosabatda Allohning kitobi, payg'ambar ko'rsatmalariga amal qiluvchi musulmon sifatida ko'rinadi. Masalan, qal'abegi o'zining sehrigar, munajjim ekanini aytib maqtanganda Bobur unga munosib javob qaytaradi:

⁵ Шу китоб. – Б. 138.



- Olamni yaratgan Alloh,-dedi Bobur,-ertalab quyoshni sharq tomondan chiqaradi. Asxi qal'abegi, gapingga qaraganda, yulduzlar sening imoyingga bo'yinsunisharkan. Sendan talabim: quyoshni g'arb tomondan chiqar...⁶

Bu dialog islom tarixidagi Ibrohim alayhissalom va Fir'avn o'rtasidagi bahsni eslatadi. Qayd etish joizki, muallifning saltanat etiketi borasida, muayyan detallarni qo'llashda, diniy so'z va iboralarni ishlatishda ba'zi xatoliklarga yo'l qo'ygani ham aniq bilinadi: birinchidan, Umarshayx Mirzo vafot etib, yosh Bobur shoh deb e'lon qilinganda butun arkoni davlat, butun lashkar va oddiy xalq uning oldida baravar tiz cho'kadi (26-bet). Bu Sharq saltanat boshqaruv etiketiga emas, g'arb davlatchiligiga xos odat; ikkinchidan, yozuvchi Bobur oq kigiz ustida turib o'q uzgan shohlik kamonini "mamont suyagidan yasalgan" deb beradi (35-bet). Bu ham temuriylar saltanati an'alariga xos emas; uchinchidan, qissaning 50-sahifasida Boburning ustoz Mirzo Ulloh bomdod namozini quyosh chiqqandan keyin o'qiydi. Holbuki, bomdod quyosh chiqquncha o'qiladi va h.k. Bunday xato dalillar va talqinlarni xohlagan tarixiy asardan topish mumkin. Ammo yosh hamda mutaxassis bo'lmagan o'quvchilar ularni bilib qo'yganlari masadga muvofiq. Umuman, F.Vyurtlening "Andijon shahzodasi" sarguzasht qissasidagi qator o'ziga xos obrazlar "Boburnoma" voqealari, Bobur obrazini xolis va haqqoniy talqin etishga qaratilgan. Umuman, islomiy e'tiqod, milliy ruh, mardona tabiat bilan bezab tasvir etilgan Bobur obrazining asosiga muallif o'zga millat kishisi bo'lishiga qaramasdan ilohiy, Qur'oniy ko'rsatma va tushunchalarni qo'ygani ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham Bobur obrazi mukammal va to'laqonli obraz sifatida o'quvchini o'ziga jalb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Саййид С. Андижондан чиққан йўлбарс наъраси / Вюртле Ф. Андижон шаҳзодаси. Сангузашт-қисса. Олмон тилидан Янглиш Эгамова таржимаси. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – Б. 4.
2. Ёқубов И.А. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. Монография. –Т.: "Фан", 2007
3. Yakubova S. The issue of «way» in cholpon's poetry. ISJ Theoretical & Applied Science. 2023. 02 (118), 490-492
4. Yakubov I. "Boburnoma" tarixiy-memuarida Alisher Navoiy vasfi // Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari.- Farg'ona - 2023. – B. 50-58
5. Yakubov I. "Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda. / FarDU. Ilmiy xabarlar - № 1, 2023. - B. 368-373

⁶ Шу китоб. – Б. 141.



6. Yakubov I. Artistic interpretation of the drama of moral and spiritual problems in the tragedy “Romeo and Juliet”. ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 517-520
7. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
8. Matyoqubova T. Shoirona tafakkur ufqi kengliklari // Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari.- Fargʻona - 2023. – B. 392 -398
9. T.Matyoqubova Tuygʻu va kechinmani kitobxonga “yuqtirish” mahorati / FarDU. Ilmiy xabarlar - № 1, 2023. - B. 394-399
10. Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020). Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7, pp. 28-37.
11. Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
12. Yakubov I. Navoiy poetik anʼanalarining mustaqillik davri oʻzbek romanlariga taʼsiri haqida mulohazalar / “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari – Toshkent-Baku 2023. – 322-327-b.
13. Yakubov I. “Boburnoma” – oʻzbek nasrining nodir yodgorligi. Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universitetida “Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan oʻrni” mavzusida oʻtkaziladigan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari.
14. Yakubov I. Umarshayx Mirzo” romanida tarixiy haqiqat va liro-romantik talqin // “Science time”, 2023 yil 2- son. – <https://uzresearchers.com/index.php/stj>
15. Якубов И, Ахмедова В. Қаҳрамонлик модусининг эътиқодий таянчи (Э.Аъзамнинг “Сув ёқалаб” киноқиссаси мисолида) Research Bib Impact Factor: 6.4 / 2023 Journal of universal science research». 2023- yil 9-son. – В 13-28.
16. Якубов И, Ахмедова В. Киносценарий – кинофильмнинг адабий ва ғоявий- бадиий асоси (Эркин Аъзамнинг “Танҳо қайиқ” киноривояти мисолида) “Journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali volume 1, Issue 6, 2023. September Research Bib Impact Factor: 8.654/2023
17. Якубов И, Ахмедова В. Эркин Аъзам ижодий-эстетик концепцияси (“Забажад” киноқиссаси мисолида) International Journal of Recently scientific researcher’s theory. Vol 1 № 6.V
18. Yakubov I, Atabayeva G. Formal-stylistic features of Aman Mukhtar’s dilogy “Navai and the artist Abulkhair” Scince Time Journal 03.09.23 – В 6-14.
19. Якубов И. Умр мазмуни ва ҳаёт зийнати. International Journal of Recently scientific researcher’s theory. – В.22-34.